

**MAKEDONIYALIK ALEKSANDRNING  
HARBIY YURISHLARI**

*Hayitboyev Bobur Odamboy o'gli*

*Urganch Davlat universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix(mintaqalar  
va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annatsiya.** *Ushbu maqola Makedoniyalik Aleksandrning hokimiyatga kelishi, Forslar bilan janglari, O'rta Osiyoga yurishlari va Hindistonga yurishlari haqida ma'lumot beradi va shu davirning ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar haqida ham malumotlar beradi.*

**Kalit so'zlar.** *Aleksandr, Forslar, Baktriya, Margiyona, Hindiston, Spitamen.*

**Annotation.** *This article provides information about the rise to power of Alexander the Great, his battles with the Persians, his march to India and also provides informatin about the social and economic processes of this period.*

**Keywords.** *Alexander, Persians, Bactria, Margyona, India, Spitamen.*

**Kirish: (Introduction)**

Makedoniya davlati Bolqon yarim orolining sharqiy qirgogida joylashgan qadimgi davlatdr. Makedoniya taxdiga Filipll dan keyin uning ogli Makedoniyalik Aleksandr hokimiyatga keldi. U hokimiyatga kelishi bilan ko'plab halqlarni birlashtirish goyasini ilgari suradi. SHu maqsada ko'plab yurishlarni amalga oshiradi. Bu yurishlar mil.avv.334-324 yilarni o'z ichiga oladi bu yurishlar natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orolari, Kichik osiyo, Old va O'rta osiyo Hind daryosining yuqori oqimigacha bo'lgan hududlarni birlashtirib o'z imperiyasiga asos soladi.Aleksandrning harbiy yurishlari natijasida Sharq va Garb o'rtasida keng savdo-sotiq va ma'daniy aloqalar vujudga keldi. Bu qadimgi dunyo tarixi uchun katta yutuq bo'lib hizmat qildi. Hususan Aleksandr O'rta osiyoga bosqinchilik yurishlariga qaramasdan O'rta osiyoda Yunon madayiyati tarqalib Ellinstik ma'daniyat vujudga keldi.

**Adabiyotlar tahlili;(Literature review)**

Aleksandrning hokimiyatga kelishi haqida ko'plab ma'lumotlar bor shulardan eng aniqroqi Ariyaning asarida uchraydi. U o'z asarida shunday deya "Aleksandrning otasi Filip Afinada vofot etadi va uning o'rniga 23-yoshli o'gli Aleksandr otirdi"[3] ma'lumot beriladi. Shu tariqa Aleksandr mil.avv. 336 hokimiyat tepasiga keldi.

Hokimiyatga kelganidan ikki yil o'tib yani mil. avv. 334-yilda sharqa o'z yurishini boshladi. "Uning asosiy raqibi Forslar edi. Forslar bilan daslabgi jang mil.avv 334-yil Granik daryosi, hozirgi Turkiya hududida bo'lib o'tadi.Bu davrda forslar tomonida yunon yolama askarlari borliki aniqlangan.Aleksandr bu jangda o'z zirxida jang tushgan.Shuning uchun unga Axilles zirxi nomini berishadi." Bu jangda Aleksandr o'zining mahoratini namoyon qiladi. "Aleksandrning fors shohi Doro III bilan daslabgi jangi Issdir (mil.avv.-333-yil.). Bu jangda DoroIIIning taktiqasiga podsho otryadi va eng yaxshi harbiy qismlar markazda joylashgan edi"[2].Lekin DoroIII ning rejleri Aleksandrni yengishiga yetmadi. Maglub bolga DoroIII kochib ketdi. Shu tariqa Aleksandr forslar ustidan yorqin galabaga erishdi va mamlakat xududini Kasbiy dengiziga qadar kengaytirdi. Endigi maqsat Hindiston edi lekin Aleksandr Hindistoni egalashga shoshilmadi.U o'z qo'shinini orqa qismini mustaxkamlash natijasida O'rta Osiyoga qaratdi. Aleksandr mil.avv.329- yilda Baktria va Margiyonaga o'z yurishini boshlaydi. "Shu davda Baktria satrapi Bess edi.U Aleksandr kelayotganini eshitib Oks daryosini kechib otib Baqtryani tashlab ketadi.Buning natijasida A Aleksandr baktryaning eng yirik shaharlarini yani Aorn va Baqtrani egaladi.Aorn qalasida Androkolning o'glini Arxelay boshchilikida qo'riqchi q'oshin qoldiradi."[1] shu tariqa Baktria ham Aleksandr saltanatiga qo'shib olinadi. U Baktradan keyin "mil.avv. 329 yilda Nautaqaga (hozirgi Qashqadaryo)kirib boradi,yo'nalish Sugdiyonaga qaratiladi. uning poytaxti Maroqandani qiyinchiliksiz egalaydi.Lekin Maroqanda egalangandan so'ng yunon-makedonlar qiyinchilika uchraydilar endilikda mahaliy xalq ularga qarshi chiqib qo'zg'olon ko'tarishadi.Shunday qo'zg'olonlardan biri Sug'gdiyonada Sipitamen

boshchilik qiladi. U xalqdan lashkar tuzib Aleksandr Maroqandada qoldirib ketgan qoshini yanchib tashlaydi. Aleksandr bu paytda Yaksarad (Sirdaryo) xududidagi xalqlarni boysundirish uchun og'ir janglar olib borar edi. Siptamen esa Aleksandrning Maroqandaga yuborgan qo'shinini Palitemet yaqinida jang olib borgan va Aleksandr qo'shini yengan. Bu voqeyadan xabar topgan Aleksandr darhol Sug'diyonaga qaytib Siptameni yengishga o'tlanadi. Aleksandr va Spitamen ortasida xalq qilivchi jang mil.avv.328-yil kuzida yuz berdi. Bu jangda Siptamen mag'lub bo'lib qochib ketishga majbur bo'ldi. Keyinchalik u xoinona tarzda o'z odamlari tomonidan o'ldiriladi.[4] Shu tariqa Aleksandr O'rta osiyo yurishi natijasida Baktria va Margiyona egalanadi. Fargona, Xorazm, Toshket mustaqiligicha qoladi. Aleksandr O'rta osiyoda qaytib Hindistonga qarab harakat qiladi va u yerda hidlarning fillar bilan janga chiqishi natijasida janglarning birida yaralanib saltanat poytaxdiga qaytishga majbur bo'ladi.

### **Taxlil va natija. (Analysis and result.)**

Makedoniyalik Aleksandr mil.avv. 334-324 yillar davomida olib borgan urishi natijasida o'z saltanatiga asos soldi. Umrini kop qismini jangu jadalarda o'tkazgan Aleksandr mil.avv.323-yil 13-iyulda vafot etdi. U tuzgan saltanat esa o'z qo'l ostida xizmat qilgan lashkar boshilari tomonidan satrabliklarga bo'linib ketdi. Satrabliklar 3ta edi. Aleksandr harbiy yurishlar natijasida G'arb va Sharq o'rtasida ilk bor savdo sotiq ma'daniy aloqalarda bog'lamish yuz berdi. Bu yurushlarni taxlil qiladigan bo'lsak o'zi Aleksandr bu yurishlarni nima maqsatda amalga oshirgan degan savol vujudga keladi. Buning asosiy sababi esa u ko'plab halqlarni o'z ichiga olgan yagona davlat bo'lishini orzi qilgan edi. Xosh u bunga qay darajada erishdi ubuning udasidan chiqdi. Yani Kichik osiyo, O'rta osiyo, Misir, shimoliy Hindiston kabi hududlarni boysindirib ulkan imperiya tuzish u davr uchun juda qiyin bo'lgan. Aleksandr faqatgina ulkan saltanat tuzishni o'ylagan desak xato bo'ladi u nafaqat saltanat tuzish balki o'z davlati madaniyatini o'zga halqlarga yoyishga harakat qilganlikini ko'ramiz. Bu borada u qurdirgan Aleksandr Esxatas I, Baktryadagi Aleksandr va boshqalar misol bo'ladi.

**Xulosa. (Summary)**

Makedoniyalik Aleksandr tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirgan shaxislardan biridir uning nomini dunyodagi barcha xalqlar yaxshi biladilar va qiziqadilar. Uning jasurligi, qatiyatliligi, adoladparvarligidan inson ruxlanib yashaydi. Aleksandr juda aqili hukumdor edi. uning davlat boshqaruvuda qilgan ko'plab ishlari hanuzgacha insonlar uchun o'rnak bo'lib kelmoqda. Uning ustozlari Aresto'tel Aleksandrga barcha sohadan ilim berganligi uchunmi u juda sergayrat inson bo'lib yetishadi. U naqt 10-yil davomida harbiy yurishlarda bo'lgan bu yurishlar davrida o'zining ko'plab sheriklar uni tashlab ketishiga qaramasda u olg'a intilishda davom etishi insoni naqadar chuqur o'yga tolishiga majbur qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

- 1.A.S.Sagdullayev O'ZBEKISTON TARIXI 2019 1-kitob 195 b.
- 2.D.J.Urakov JAXON TARIXI (Qadimgi sharq, qadimgi yunoniston va Rim tarixi.)201 202 b.
- 3.E.J.Chinnock M.A., LL.B. LONDON The Anabasis of Alexander.BOOK I Chapter I.
- 4.Q.Usmonov O'ZBEKISTON TARIXI Toshkent 2016-y.55 56 b.